



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLYI VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
INNOVATSION  
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

**“BOSHLANG'ICH TA'LIM INNOVATSION  
KLASTERI VA RAQAMLI TA'LIM:  
EHTIYOJ, ZARURAT, NATIJA”  
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA  
ILMIY-AMALIY ANJUMAN  
MATERIALLARI**

**Бухоро - 2021**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA**

**MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIM NAZARIYASI KAFEDRASI**

## **Boshlang‘ich ta‘lim innovatsion**

### **klasteri va raqamli ta‘lim:**

### **ehtiyoj, zarurat, natija**

**Respublika miqyosidagi  
ilmiy-amaliy konferensiya materiallari  
(10 MART, 2021 YIL)**

Tarqatish hududi: **Respublika ilmiy-nazariy anjumani tashkiliy qo‘mitasi:** <http://interscience.uz/> Raisi:  
O.X.Xamidov - Buxoro davlat universiteti rektori.

onlayn Rais o‘rinbosari: O.S.Qahhorov - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais muovini

**A‘zolari:**

Q.R.To‘qsonov, Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti dekani. D.N.Mustafayeva, Buxoro viloyati xalq ta‘limi boshqarmasi boshlig‘i G.T. Zaripov, IT, I va IPKTB bo‘limi boshlig‘i.

Yu.Yu.Azimov, Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti o‘quv ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari.

N.O. Safarova, Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosari.

M.Yo.Ro‘ziyeva, Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi kafedrası mudiri.

G.R.Akramova, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha mas'ul. B.S.Jamilova, Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası dotsenti.

S.Akramova, Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi.

S. G'.Luqmonova, Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi, kotib

ISBN To'plamga kiritilgan maqola va tezislardagi fikr va ma'lumotlarning to'g'riligiga mualliflar mas'ul.

## MUNDARIJA

---

KIRISH	8
1-SHO‘BA. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA INNOVATSION KLASTER: MUAMMO VA YECHIMLAR ....	9
<a href="#">O.X.Xamidov.</a> Ta‘lim klasterining afzalliklari	9
<a href="#">Гофуржон Мухамедов</a> Педагогик таълим кластери: чирчиқ тажрибаси	11
<a href="#">Maxmudov M.X</a> Ta‘limga klaster yondashuvning nazariy-metodologik asoslari	15
<a href="#">То‘xсанов Q.R.</a> Maktab - universitet - ishlab chiqarish bosqichlarida klaster yondashuvlar – samaradorlikning kafolati	16
<a href="#">Ro‘ziyeva M.Y.</a> Raqamli ta‘lim jarayonining shakllanishi va rivojlanish omillari	19
<a href="#">Б.С.Жамилова</a> Болалар ижодий тафаккурини шакллантиришда педагогик таълим инновацион кластери фаолиятининг самарадорлиги	21
<a href="#">Ходжамқулов У.</a> Педагогик таълим инновацион кластери: хорижий тажриба ва миллий ташаббус	24
<a href="#">Akramova G.R.</a> Boshlang‘ich ta‘limda innovatsion klasterga ehtiyoj	30
<a href="#">A.P.Хамроев</a> Бошланғич таълимга замонавий ёндашув: натижа ва таҳлил	31
<a href="#">Жамилова Б.С., Нигора Муртазоева</a> “Мақтаб-лаборатория” тажриба инновацион майдончалари истиқболли лойиҳалар кафолати	33
<a href="#">Ziyodova Zahro</a> Badiiy asarni tushunish va tahlil qila olish ko`nikmasini shakllantirishda pedagogik ta‘lim innovatsion klasteri ahamiyati	34
<a href="#">Subhonova S. U.</a> Boshlang‘ich ta‘limda fanlararo integratsiya va innovatsion loyihalar klaster modeli namunasi sifatida	35
<a href="#">Kuzmanova G.B.</a> Boshlang‘ich sinf matematika darslarida matnli masalarni yechishga o‘rgatishda innovatsion klaster usuli	38
<a href="#">Миртурсунова Ю.А</a> Термин «образовательный кластер» в современной методике	41

2-SHO‘BA. BOSHLANG‘ICH TA‘LIM INNOVATSION KLASTERINI TASHKIL ETISH ZARURATI ...	45
<a href="#">Тешабоева З. С</a> Илм-фан ва таълим тизимида кластер- соғлом рақобат омили .....	45
<a href="#">Boltayeva M. A.</a> Badiiy asar tahlili – o‘quvchi nutqini o‘stirishda muhim omil .....	46
<a href="#">Хусенова М. Х.</a> Pirls халқаро баҳолаш тизими .....	48
<a href="#">Умарова З.</a> Бошланғич синфларда педагогик конфликтларни бартараф этишнинг инновацион кластери .....	51
<a href="#">Очилов Ф.И.</a> Бошланғич синф ўқувчиларига табиий-илмий билимларни ўргатишнинг мавжуд муаммоларини бартараф этишда кластернинг аҳамияти .....	54
<a href="#">Boboqulova.S.B., Isoyeva.M.B</a> Markov jarayonlari va zanjiri .....	56
3- SHO‘BA. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA INNOVATSION KLASTER - FANLARARO INTEGRATSIYA VA UZVIYLIKNI TA‘MINLASH KAFOLATI .....	59
<a href="#">Абдуллаев А. А.</a> Мактабгача таълимда кластер самараси .....	59
<a href="#">Бердиева М. М., Курбонмуродова Ф.</a> PIRLS баҳолаш тизими асосида саволлар миллий базасини яратиш долзарб аҳамияти .....	61
<a href="#">Халилова Р. Р.</a> Виртуал мулоқот имкониятлари .....	63
<a href="#">Ачилова М. С.</a> Мактабгача ва бошланғич таълимда узвийликни таъминлаш давр талаби. .	64
<a href="#">Davronov I.E., S.Muhiddinova</a> O‘quvchi salomatligini muhofaza qilish omillari .....	66
<a href="#">I.E.Davronov</a> Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish .....	67
<a href="#">Бердиева М. М. Хушбоқова З. Ғ.</a> Бадий адабиёт воситасида мактабгача ёшдаги болаларни маънавиятини шакллантириш долзарб педагогик муаммо сифатида .....	68
<a href="#">Rajabova I. Qosimova M.</a> МТТда болаларни интеллектуал ривожлантиришда о‘yin mashg‘ulotlarining аhamiyati .....	71
<a href="#">Бердиева М. М., Жумаева М. Э.</a> Миллий қадриятлар орқали мактабгача ёшдаги болаларни эстетик тарбиялаш .....	73
<a href="#">Чиналиева А.</a> Ўқитувчини инновацион фаолиятга тайёрлаш .....	74
<a href="#">Uktamova M. Nosirova D.</a> Methodology of comparative teaching of the author to the sources	

of folklore in primary school lessons .....	77
<a href="#">Мансурова Х.</a> Бошланғич синфларда она тили фанидан интеграция ва узвийликни таъминлашда иншонинг ахамияти .....	78
<a href="#">Жабборова М.</a> Биология таълимида интегратор технологиялардан фойдаланиш .....	79
<a href="#">Ибрагимов Д.А.</a> Ахборот асрида ёшлар маънавиятига мафкуравий тазйиқларнинг таъсири .....	82
<a href="#">Машарипов Ж.</a> Соғлом бўлишга жисмоний ва рухий жиҳатдан камол топишга йўналтирилган кўникма ва малакаларни шакллантириш .....	84
<a href="#">Сайтметов О.Б.</a> Жамоатчилик назорати механизмларини ривожлантиришнинг ўзига хос жиҳатлари .....	85
Курязова Н. Применения pirls в начальных классах (австрийский опыт) .....	86
<a href="#">Кучкарова М.</a> Информационные технологии как метод влияния .....	89
<a href="#">Sariyev Sh.U.</a> Boshlang‘ich sinflarda nutq o‘stirish jarayonida fanlararo integratsiya va uzviylikni ta’minlash .....	92
<a href="#">Усманова С.Э., Бозорова Б. Ч.</a> Болаларни мактабгача таълим муассаларида маънавий-ахлоқий кадриятлар руҳида тарбиялаш аспекти .....	94
<a href="#">Yo`ldosheva Sh.</a> Integratsiya – dars samaradorligini oshirish omili .....	97
<a href="#">Усманова С., Эргашева Г.</a> Мактабгача таълим муассасаларида касб - ҳунарга йўналтириш масалалари .....	99
<a href="#">Хамдамова М. Дж., Абдурахманова А.</a> Импульсивное поведение в младшем школьном возрасте .....	101
<a href="#">Пўлотова Ю.А.</a> Она тили ва ўқиш дарсларини интеграциялашда ахборот - ресурс таъминоти .....	103
<a href="#">Axmedova D., Mametjumayeva G.</a> Boshlang‘ich sinflarda badiiy asar matnini tahlil qilish usullari.....	107

<a href="#">Hamidova I.</a> Problems of translation of "spirituality" units in uzbek and english dictionaries ...	109
<a href="#">Турдиева Н.С.</a> Таълим кластери таълим интеграциясининг институционал тизими сифатида.....	110
<a href="#">Najmiddinova D.</a> Interpretation of the profession in the “shohnoma” .....	113
4- SHO‘BA. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISH.....	117
<a href="#">Умуров З.Л.</a> Таълимни рақамлаштириш шароитида бошланғич синфларда таълимий муаммоларни тайёрлаш технологияси .....	117
<a href="#">Луқмонова С.Ф.</a> Ўқитувчи фаолиятида рақамли таълим: муаммо, ечим, самара. ....	120
<a href="#">Шамсиддинова Д.Х</a> Бошланғич таълим жараёнида юзага келадиган педагогик низоларни бартараф этиш .....	121
<a href="#">Shazadayev F</a> Boshlang`ich ta`lim y o`nalishida axborot texnologiyalarini o`qitishda kompetensiyaviy yondashuv .....	123
<a href="#">Ходжаева М</a> Бўлажак мутахассисларда мулоқот маданиятини шакллантириш .....	128
<a href="#">Ochilova L.T., N. B. Razzoqova</a> Matematikadan amaliy mashg'ulotlar jarayonida kompyuter texnikasidan foydalanish samaradorligi .....	129
<a href="#">Ochilova L.T.</a> Matematika darslarida pisa testlaridan foydalanishning amaliy ahamiyati .....	131
<a href="#">Ochilova L.T. L.Ch.Rajabova</a> STEAM ta`lim dasturi asosida matematika masalalarini yechishning ilg'or usullari .....	135
<a href="#">L.T.Ochilova S.Erkinova</a> Boshlang'ich matematika kursini o`qitish jarayonida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasi .....	137
<a href="#">Axrorov I., Qosimov A</a> Arifmetik masalalar ustida ishlash borasida ba'zi ilmiy – uslubiy mulohazalar .....	139
<a href="#">Djumayev M</a> Boshlang'ich sinflarda matematikadan milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning ilmiy-metodik asoslari .....	143
<a href="#">X J.Sattorova Z. I.Abdunazarova</a> O'qish darslarida hikoya matni ustida ishlashda pirls topshiriqlardan foydalanish .....	146

<a href="#">M.H. Raxmatova</a> Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim-tarbiyasida o'qituvchining o'rni .....	148
<a href="#">Komilova Sh.A.</a> Boshlang'ich sinf ona tili darslarida fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish .....	149
<a href="#">Muxitdinova N.B.</a> Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini multimediali texnologiyalar vositasida shakllantirish .....	152
<a href="#">Nuritdinova Sh., Askarova M.</a> Boshlang'ich sinflarda so'zlarning ko'chma ma'nosi ustida ishlash .....	154
<a href="#">M.D. Xaydarova D.Hakimova</a> Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslarini olib borilishi .....	157
<a href="#">Xudayarova M., Djanabayeva X.</a> Raqamli ta'lim texnologiyalari orqali ona tilini o'qitish jarayonida kompyuter dasturlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	158
<a href="#">Hamrayev M.A Xakimova Z.A.</a> Boshlang'ich sinf darsliklarida olmosh so'z turkumining o'rganilishi .....	159
<a href="#">Masharipova U.A.</a> Raqamli ta'lim texnologiyasini o'quv jarayoniga joriy etish is tiqbollari.....	162
5- SHO'BA. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XXI ASRDA TA'LIM .....	165
<a href="#">Ядгарова Г.</a> Раҳбар шахс имижини белгиловчи психологик сифатлар .....	165
<a href="#">D.X.Shodmonqulova D.G'.Pardaboyeva</a> Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ona tili darslarida	



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA SO'ZLARNING KO'CHMA MA'NOSI USTIDA ISHLASH

*Nuritdinova Shahnoz Sadridinovna,  
Boshlang'ich ta'lim nazariyasi o'qituvchisi  
Askarova Mohina 1-bosqich talabasi*

Leksik ma'nolar o'z ma'no va ko'chma ma'no deb farq qilinadi. Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida turlicha misollar bilan izohlanadi. Misol uchun: 4-sinf ona tili darsligida o'z va ko'chma ma'nodagi so'z birikmalari ikki ustunchaga ajratamiz.

O'z ma'no -Ko'chma ma'no

Odamning oyog'i -Karavotning oyog'i

Ko'ylakning etagi -Qirning etagi

Qushning tumshug'i-Kemaning tumshug'i

Boshlang'ich sinflarda so'zning ko'chma ma'nosi ustida ishlash jarayonini ikki bosqichga ajratish mumkin:

1. O'quvchilarga so'zning ko'chma ma'nosini tushuntirish.

2. O'quvchilarni so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llashga o'rgatish. 1-bosqich

So'zning ko'chma ma'nosini tushuntirishni 1- va 2-sinfdan boshlab amalga oshirsa bo'ladi. So'zning ko'chma ma'nosi haqida o'quvchida tushuncha hosil qilish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1. So'zlarning o'z va ko'chma ma'noda qo'llangan shakllarini qiyoslash.

Masalan, doskaga quyidagi ikkita gap yoziladi.

1. Oltin oltin uzuk sotib oldilar.

2. Oltin oltin kuz kirib keldi.

O'qituvchi o'quvchilarga quyidagi savollarni beradi:

1. Oltin oltin deganda nimani tushunasiz?

2. Doskaga yozilgan gaplarga e'tibor bering. Qaysi gapda oltin so'zi siz tushungan narsani ifodalayapti?

3. Nima uchun 2-gapda oltin kuz deyilgan? Kuz ham oltindan yasaladimi?

O'quvchilar javob bera olmasa, quyidagicha izoh beradi: O'quvchilar, kuzda daraxtlarning bargi sap-sariq rangda bo'ladi. Bundan tashqari, meva-chevalar ham g'arq pishadi. Shuning uchun oltin so'zi sap-sariq va to'kin-sochin degan ma'noni bildiradi. Demak, ikkinchi gapimizda oltin so'zi ko'chma ma'noda qo'llangan.

2. So'zning o'z va ko'chma ma'noda qo'llanadigan birikmalarini qiyoslash.

Doskaga so'zlar o'z va ko'chma ma'noda qo'llangan so'z birikmalari osiladi. Masalan, quyidagicha:

Shirin qovun	Shirin so'z
Qalin qor	Qalin do'st
Temir qozon	Temir iroda
Tulkining dumi	Akasining dumi

O'qituvchi o'quvchilarga quyidagi savollarni beradi:

- O'quvchilar, ikki tomonda ham shirin, qalin, temir hamda dum so'zlari qo'llangan, bu so'zlarning ikkala ustunchadagi ma'nolari bir xilmi?

- Qaysi ustunchadagi so'zlar ko'chma ma'noda qo'llangan?

Shu tarzda har bir so'z birikmasi tahlil qilinadi. Bu mashq orqali o'quvchilar o'ng ustunchadagi birikmalarda shirin, qalin, temir va dum so'zlari ko'chma ma'noda qo'llanganini bilib oladilar.

### 3. Matndan ko'chma ma'nodagi so'zlarni toptirish.

Bu ish o'quvchilarda ko'chma ma'noli so'z haqida tushuncha hosil bo'lgandan keyin amalga oshiriladi.

Masalan, o'quvchilarga quyidagi matn beriladi.

Ona diyorumizga oltin kuz o'z sepini yoygan. Bog'larda asal mevalar, polizlarda shirinshakar qovunlar g'arq pishgan.

- Endi o'quvchilar, toping-chi! Mana shu gaplardagi qaysi so'zlar boshqacha ma'noda qo'llangan? Buni aniqlash uchun har bir so'zni matndan ajratib olamiz. Bu yerdagi so'zlar o'z ma'nosida ifodalanganmi?

1. Ona- har bir kishini dunyoga keltirgan ayol.

Demak, bu so'z ko'chma ma'noda qo'llangan.

2. Oltin- sariq rangli, qimmatbaho metall. Barglarning sariqligi, to'kin-sochinlik ma'nosida qo'llangan. Demak, ko'chma ma'noda ifodalangan.

3. Sep yoymoq- kelinchak kuyovning hovlisiga tushgandan keyin o'zining bor bisotini yoyib, odamlarga ko'rsatadi.

-Kuz sepini yoyishi deganda nimani tushunasiz?

- Bunda kuz fasli g'arq pishgan mevalarini, qovun-tarvuzlarini va ko'plab noz-nematlariyu go'zalliklarini yoyib, ko'z-ko'z qilishi tushuniladi.

-Matnda yana qaysi so'zlar ko'chma ma'noda qo'llangan?

O'quvchilar asal, shirin, shakar so'zlari ko'chma ma'noda qo'llanganini aniqlaydi.

Bu turdagi mashqlarni doimiy bajarish natijasida o'quvchilar gap va matnlar ichidan ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarni mustaqil ravishda topa oladigan bo'ladi.

#### 2-bosqich

O'quvchilarni so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llashga o'rgatish birmuncha murakkabroq bo'lib, buni 3-,4-sinflarda amalga oshirish mumkin. O'quvchilarga so'zni ko'chma ma'noda qo'llashga o'rgatishda quyidagi mashqlardan foydalansa bo'ladi:

1. So'zlarni nome'yoriy qurshovda qo'llab, so'z birikmasi tuzdirish. Buning uchun doska ikki ustunga ajratiladi. Chap tomonga ko'chma ma'noda qo'llaniladigan so'z, o'ng tomonga esa bu so'zlar bilan me'yoriy va nome'yoriy qurshovda birikadigan so'zlar beriladi. O'quvchilarga chap va o'ng tomondagi so'zlarni biriktirib, so'z birikmasi tuzish topshiriladi. Masalan:

oltin	kuz uzuk
shirin	uzum uyqu

O'quvchilar quyidagi so'z birikmalarini tuzadi: oltin kuz, oltin uzuk, shirin uzum, shirin uyqu. O'qituvchi bu birikmalardan qaysilarida oltin, shirin so'zlari ko'chma ma'noda qo'llanilganini so'raydi. O'quvchilar "oltin kuz, shirin uyqu birikmalarida"- deb javob beradilar. O'qituvchi bilimlarni yanada mustahkamlash maqsadida yana bir nechta misol aytadi. O'quvchilar unga mos so'z birikmalarini hosil qiladilar. Masalan: kumush- tola, soat, qish va hokazo...

O'quvchilar quyidagi so'z birikmalarini hosil qiladilar: kumush tola, kumush qish.

- O'quvchilar, siz bu birikmalarda kumush so'zini qanday ma'noda ifodaladingiz?

- Ko'chma ma'noda.

- Kumush qish deganda kumush so'zi qanday ma'no anglatmoqda?

- Qish fasli oppoq qor parchalari bilan kumushga o'xshashi nazarda tutilgan.

Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga shu birikmalardan foydalangan holda gap tuzishni topshiradi. O'quvchilar quyidagi gaplarni tuzadi.

Masalan: Yurtimizga kumush qish kirib keldi.

2. O'quvchilarga ma'lum bir so'z berilib, uni ko'chma ma'noda qo'llab, so'z birikmasi tuzish topshiriladi.

O'quvchilar to'g'ridan to'g'ri so'z birikmasi tuza olmasliklari mumkin. O'quvchilarni so'zni ko'chma ma'noda qo'llashga o'rgatish uchun quyidagi usuldan foydalanish mumkin:

Ko'chma ma'noda qo'llangan so'zga ma'nodosh bo'lgan o'z ma'nosida qo'llangan so'z topiladi. O'z ma'nosida qo'llangan so'z ishtirokida so'z birikmalari tuzdiriladi. Shundan so'ng bu birikmalardagi o'z ma'nosida qo'llangan so'z ko'chma ma'noda qo'llangan so'z bilan almashtiriladi. Masalan, quyidagicha:

-Shirin tush birikmasida shirin so'zi qanday ma'noni bildiriyapti, uni qaysi so'z biulan almashtirish mumkin?

- Yoqimli so'zi bilan.

- Unday bo'lsa yoqimli so'zi ishtirokida so'z birikmalari tuzing.

O'quvchilar birikma tuzadi: yoqimli so'z, yoqimli tush, yoqimli bola,yoqimli suhbat.

- Endi o'quvchilar, shu birikmalardagi yoqimli so'zini shirin so'ziga almashtirib chiqing. - Shirin so'z, shirin bola, shirin tush, shirin suhbat.

- Mana, o'quvchilar siz shirin so'zini ko'chma ma'noda ishlatib so'z birikmasi tuzdingizlar. Endi xuddi shu ishimizni oltin so'zi ustida bajaramiz. Men ikkita birikma aytaman: oltin barglar, oltin so'z. bu birikmalardagi oltin so'zlari qanday ma'noni bildiriyapti? Ularni qanaysi so'zlar bilan almashtirish mumkin?

- Birinchi birikmada oltin so'zini sap-sariq so'zi bilan, ikkinchi birikmada bebaho so'zi bilan almashtirish mumkin.

- Endi sap-sariq va bebaho so'zlari ishtirokida so'z birikmalari tuzing.

O'quvchilar sap-sariq uzum, sap-sariq olma, bebaho bolalik, bebaho maslahat, bebaho davr so'z birikmalarini tuzadi.

- Endi sap-sariq, bebaho so'zlarini oltin so'zi bilan almashtiring.

O'quvchilar almashtirish natijasida oltin uzum, oltin olma, oltin bolalik, oltin maslahat, oltin davr birikmalarini tuzadi.

O'quvchilar bu usulni yaxshi o'zlashtirib olgach, o'qituvchi boshqa so'zlarni aytib, o'quvchilarga bu so'zlarni mustaqil ravishda ko'chma ma'noda qo'llashni topshirishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan usullardan ona tili va o'qish darslarida muntazam ravishda foydalanib borilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llashni o'rganadi. Bu esa ularning nutqini obrazli va ta'sirchan qiladi.